



**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## THE POETIC FUNCTION OF THE SYMBOL IN WESTERN AND EASTERN LITERATURE

**Dilmurod Xoldorov,**

**Assistant Professor, Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi**

[xoldarov.dilmurod@mail.ru](mailto:xoldarov.dilmurod@mail.ru)

**Abstract:** Humanity's appeal to colors is a phenomenon related to ancient times, to symbols in folklore, and to people's feelings in accepting existence.

In this article, symbols related to color in the work of Nazar Eshanqul, their role in the realization of the artistic intention of the creator is given importance. Black color has also appeared in the titles of the writer's works: "Journey to the Kingdom of Darkness" ("Zulmat saltanatiga sayohat"), "The Black Book" ("Qora kitob"), "Night Fences" ("Tun panjaralari"). Metaphors related to black color and night are leading in these works.

Creative research in fiction also shows that the nature of traditional images changes over time. It is explained that the black color, night, is not only the color of evil or ignorance, but can also mean the appreciation of goodness and the glorification of bright days in human life.

**Key words:** symbol, colors, story, plot, narrator, hero, narrator, modern.

**G'ARB VA SHARQ ADABIYOTIDA RAMZNING POETIK VAZIFASI**

**Dilmurod Xoldorov,**

**Alisher Navoiy nomidagi**

**ToshDO‘TAU dotsenti**

[xoldarov.dilmurod@mail.ru](mailto:xoldarov.dilmurod@mail.ru)

**Annotatsiya:** Insoniyatning ranglarga murojaat qilishi qadim zamonlarga, xalq og‘zaki ijodi namunalariidagi ramzlarga, insonlarning borliqni qabul qilishdagi tuyg‘ulariga tegishli hodisalar hisoblanadi.

Mazkur maqolada Nazar Eshonqul ijodida rang bilan bog‘liq ramzlar, ularning ijodkor badiiy niyatini ro‘yobga chiqarishdagi o‘rniga ahamiyat berilgan. Qora rang yozuvchi asarlarining sarlavhalariga ham chiqqan: “Zulmat saltanatiga sayohat”, “Qora kitob”, “Tun panjaralari”. Qora rang, tun bilan bog‘liq metaforalar bu asarlarda yetakchilik qiladi. Badiiy adabiyotdagi ijodiy izlanishlar an‘anaviy obrazlarning mohiyatini vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini ham ko‘rsatadi. Qora rang, tun faqatgina yovuzlik yoki jaholat ranglarigina emas, balki ezgulikni qadrlash, inson hayotidagi oydin kunlarni e‘zozlash ma‘nolarida ham kelishi mumkinligi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ramz, ranglar, qissa, syujet, roviy, qahramon, roviy, modern.

**Аннотация:** Обращение человечества к цветам – явление, связанное с древними временами, с символами в фольклоре и с чувствами людей при принятии существования.

В данной статье придается значение символам, связанным с цветом в творчестве Назара Эшанкула, их роли в реализации художественного замысла творца. Черный цвет появился и в названиях произведений писателя: «Путешествие в царство тьмы», «Черная книга», «Ночные ограды». Ведущими в этих произведениях являются метафоры, связанные с черным цветом и ночью. Творческие исследования в художественной литературе также

показывают, что природа традиционных образов со временем меняется. Объясняется, что черный цвет ночи – это не только цвет зла или невежества, но также может означать признание добра и прославление светлых дней в жизни человека.

**Ключевые слова:** символ, цвета, рассказ, сюжет, повествователь, герой, современность.

### **Kirish (Introduction)**

Jahon adabiyotida XX asrning birinchi yarmidayoq noan'anaviy tasvir obyekt va tasvir uslubi paydo bo'ldi. Ayniqsa, Marsel Prust (Fransiya), Jeyms Joys (Irlandiya), Frans Kafka (Chexoslavakiya) singari ijodkorlar bu noan'anaviy yo'nalishda o'ziga xos maktab yaratishdi. "Ular adabiyotda o'chmas iz qoldirish barobarida yuzlab izdoshlar ham topdilar"[1. -B. 47].

Jahon adabiyotining durdonalaridan boxabar bo'lish, voqelikni irratsional qabul qilish va talqin etish, ong oqimi, botiniy shuur o'zbek nasrida ham o'z ifodasini topdi. Zero, hech bir milliy adabiyot o'z qobig'ida, yolg'iz o'zining an'ana va muhitida taraqqiy etishi mumkin emas. Shu ma'noda, o'zbek adabiyotining 80–90-yillar avlodi nosirlari ijodida jahon adabiy maktablaridan saboq olish va yangilikka intilish jarayonlari yuzaga kela boshladi. Murod Muhammad Do'st, Olim Otaxonov, Xurshid Do'stmuhammad, jumladan, mazkur tadqiqot ob'ekti bo'lgan Nazar Eshonqul tomonidan yozilgan hikoya va qissalarda yangilanayotgan nasrning ana shu belgi-alomatlari tajassum topdi.

### **Asosiy qism (Main part)**

Badiiy adabiyotda ranglar bilan bog'liq turli ramzlar, obraz va timsollar uchraydi. Nazariy aspektda hozirgi o'zbek she'riyatidagi bunday rang ramzlarni tadqiq qilgan ishlar ham talaygina.

Shu ma'noda Nazar Eshonqulning "Tun panjaralari" [4. – B. 481-512] qissasidagi tun tasvirlarida ramziy majoziy ma'nolari bo'rtib turadi. Qissa qahramoni tun qo'ynidan yorug'lik izlaydi.

Qissago'y – roviy ma'rifatli odam. U ilmiy tadqiqot yozayotgan kishi, jurnalda ishlayotgan ziyoli kimsa. Shuning uchun o'zbek adabiyoti tarixi bilan ham, jahon san'ati va adabiyoti tarixi bilan ham yaxshi tanish. Roviylar dunyo san'atidagi qora ranglar bilan manzaralar chizadigan san'atkorlarni ham yaxshi biladi. "Tun panjaralari" qissasining bir sahifasida faqat tun manzaralarini chizgan holland musavviri Gerard Contrast nomini keltirib o'tadi: "Qish va bahor paytlari Gerard Contrastning rasmlariga o'xshab sirli va bir oz qo'rqinchli tuyuladi. Tun qa'riga tikilib qarasang, qip-qizil yog'du oqib yotganday bo'ladi. Biroq Gerard Contrast tunda mash'alani ko'rgan. Mash'alani ko'rgan kishi ertasi nima bo'lishini tasavvur qila oladi" [4. – B. 501]. Asar qahramoni bunday tun bag'ridagi yorug'likni anglaydi. Ammo tun panjaralariga qarab turgan qahramon tabiatida muvozanatdan chiqqan holatlar hukmronlik qiladi. Qahramon ma'lum bir fikr atrofida o'ralashib qolmaydi. U o'z xayolida, botinida kechayotgan ruhiy ahvoldan hikoya qiladi. Shuning uchun qissa uslubiy-kompozitsion jihatdan tarqoqdek taassurot beradi. Ammo ong oqimi, qahramonning ong ostida kechayotgan psixologik holati asarga butunlik bag'ishlaydi. Qahramonning o'tmishida, xayolining bir burchaklarida qolib ketgan Robiya ismli bir muhabbat ramzi bor. Uni Tersotaning katta tosh yo'li chekkasiga tashlab kelgan. Robiya – qahramonning bolalik xotiralarini qayta tiklash vositasi. Hosila esa, uning hayotida topgan yana bir muhabbati. Bu obraz qahramonning ayni paytdagi hayotini maromga solib turadi.

Qissaga Alisher Navoiyning "Boshimg'a, ko'rki, ne tun kelturibsen..." misralari epigraf qilib olingan. Bu bir jihatdan asarning birinchi muhabbat fojiasi ekaniga dalolat qiladi. Hayot so'qmoqlari aro adasha-adasha ma'lum bir manzilga kelgan qahramon ortiga nigoh tashlaydi. Anglaydiki, u yetib kelgan manzilga qadar ortidagi yagona chiroq yoritib turibdi. Bu o'sha – birinchi muhabbat atalgan chiroq, ya'ni, Tersotaning tosh yo'lida qolib ketgan Robiya ismli qizdir. Qahramon

(qissago'y) kayfiyati, o'y-fikrlari, hatto ifoda ohangidagi tragik pafos ham aynan mana shundan kelib chiqadi. Qahramonning ortga qarab yagona haqiqatni anglashi uning fikrchan, ulug'vor insonligidan dalolat beradi. Lekin bosib o'tilgan yo'lni, vaqtni orqaga qaytarish mumkin emas. Fojia shunda. Asardagi tun va u bilan bog'liq tasvirlarni kuzatar ekanmiz, beixtiyor savol tug'iladi: Nega ijodkor tunga murojaat qilyapti? Bizningcha, bu o'rinda savolga javob topish uchun tun bilan bog'liq ramzlarga e'tibor qaratish lozim.

“Tun gulzori ham bir-bir ochila boshladi. Aftidan, tun o'zining ulug'vorligi va go'zalligini bilsa kerak – men mana shunday oqshomlari kimnidir intiq bo'lib kutaman.

Tun shohona libosda asta-sekin hamma narsani o'z izmiga bo'ysundirmoqda.

Tun xushbo'y siyohrang atirgulga o'xshaydi. Bu gulni kim uzib ko'k qo'yniga qo'yib ketdi ekan, men bilmayman” [4. – B. 482].

Tasvirdagi tun tasviri, “tunning ulug'vorligiyu go'zalligi” haqidagi, “tun gulzori bir-bir ochila boshladi” kabi tasvirlarning ma'nolarini anglash uchun chuqur tasavvur va mushohadaga berilmay turib, yozuvchining niyatini, ramzlar ortidagi ma'noni anglash qiyin. Yozuvchining o'zi aytganidek: “Tunning kun kabi, kunning tun kabi cheksizligi bu jarayondagi evrilishlarning bepoyonligi va abadiylikni ko'rsatadi. Inson shu abadiylik ichida yashar ekan, o'ziga makon yasab olishga urinadi” [5. – B. 6]. Inson hamisha yorug' xayollar olamida yashasa, sekin-astanurning mohiyatini unuta boradi. Unutish, xotiraning yo'qolishi insonni turli ko'rgiliklarga olib keladi. Shuning uchun ham dunyo adabiyotida tan olingan daholar yovuzlik orqali ezgulikni, zulmatdan yorug'likni, nafratdan shafqatni, chirkinlikdan tiriklikni, ufunatdan iforni yoritishga harakat qiladi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning “Tun panjaralari” qissasi haqidagi: “Tun gulzori ham bir-bir ochila boshladi”, – deyiladi bir o'rinda. Asarda muqim bir syujetning yo'qligi mayli tajriba bo'la qolsin, lekin tasvir tabiiy va aqlga muvofiq bo'lishi kerak emasmi? Ma'lumki gulzor emas, gul ochiladi. Tunni gul yoki gulzorga mengzash judayam o'rinli deb bo'lmaydi. O'xshatish, odatda, noma'lum narsani o'quvchi ko'z

oldiga keltirishni osonlashtirish uchun qilinadi” [2. – B. 43], – degan fikrlariga unchalik qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki dastlab qorong‘ulikka qarasangiz ko‘zingiz hech narsani ko‘rmaydi. Ozgina diqqat bilan tikilsangiz sekin asta tun qo‘ynidagi narsalar ko‘rina boshlaydi va ana shu narsalar bir-bir ochila boshlayotgan tun gulzoriga o‘xshatiladi. “Tun – yorug‘ umidlar belanchagi. Oydin nurlar enagasi. Shu boisdan ham jonliyu jonsiz mavjudot, tabiatu nabotot, barru-bahrlar oydin tunlar naykamalagida jilolanadi. Tun bir gal oydin xayollar suradi, boshqa bir gal quyuc fikrlari oppoq sutga chayilgandek ko‘rinadi” [6. – B. 17]. Aslida ham ochlikdan keyin to‘qlikning, hijron azobidan keyin muhabbatning, qarilikda yoshlikning qadri oshganidek, zimistonda ko‘rina boshlagan narsaning ham zavqi gulzorda ochila boshlagan gullarni esga soladi. Samoda chaqnagan yulduzlar ham birdaniga emas, asta-sekinlik bilan, ya’ni bir-bir ochila boshlaydiki, bu ham “Tun gulzorlari asta-sekin ochila boshladi”, – degan tasvirga monanddir.

Faylasuf Nitsshe: “Men – nurman; oh, men tun bo‘lsaydim!

Biroq mening yolg‘izligim shundaki, men nur bilan chulg‘anganman.

Oh, qani endi men qora va tunvoriy bo‘lsaydim! Men nurlarning yelinlariga tamshanardim” [3. – B. 100], – deb aytadi. “Tun romga ko‘kraklarini qo‘yib, qora kiygan kampirdek menga sinovchan tikilib o‘tiribdi. Faqat tungina bepoyon va mangudir”, – deydi qissago‘y [4. – B. 487]. Haqiqatdan tunda osmonga razm solib qarasangiz “Samon yo‘li” yulduzlari odamga yo‘l ko‘rsatuvchi ona siymosini esga soladi. Hayot tarzidan bezigan, o‘ziga yo‘l qidirayotgan insonning xayollari “Samo yo‘li” yulduzlariga najotkor tikilishi natijasida paydo bo‘lgan tasavvur boshqacha bo‘lishi mumkin emas-da.

### **Natijalar va muhokama (Results and discussions)**

Bugungi adabiyotdagi qarashlar o‘zgaryapti. O‘quvchilar orasida yozuvchi tayyorlab qo‘ygan tayyor ma’nolarnigina axborot tarzida qabul qiluvchilar bilan birga o‘ylashga, tasavvur qilishga moyil kitobxon ham yashayapti. Bir vaqtlar asarlari zararli deb tanqid qilingan adiblar asarlari original yoki tarjima tarzida kitobxonga tuhfa qilinyapti. Demak, bugungi o‘quvchi har doimgidan ko‘ra G‘arb

adabiyoti bilan kengroq tanisha boshladi. Dunyo adabiyoti bilan yaqindan tanishuv yo‘lidagi tajribalar Nazar Eshonqul ijodida aniq ko‘rinadi.

“Tun panjaralari” qissasi voqelik asosiga qurilgan syujetga ega emas. Ammo syujet chizig‘ini qissa qahramoni tabiatidagi o‘zgaruvchanlik, o‘ychanlik, falsafiy mushohadakorlik ta‘minlaydi. Asar qahramoni “xilvat odam”dir. Xilvatda turib fikrlayotgan, o‘z dunyosiga nazar solayotgan odam. Mana uning e‘tirofi: “Yo‘q, men to‘satdan shunday, hamma narsadan sovigan xilvat odamga aylanganim yo‘q. Men o‘zimni tushunadigan birorta do‘st izlab turli davralarga suqilib kirishga harakat qildim. Lekin hamisha qandaydir beshafqat kuch meni ular orasidan surib chiqarib tashlayverdi” [4. – B. 487]. Ana shu xilvatdagi odam o‘y surmoqda. Hayotining mazmuni, baxt va baxtsizlik to‘g‘risida fikr yuritmoqda. Ma‘lumki, fikr hamma vaqt ham bir tekis, silliq va bir chiziq asosiga qurilmasligi, turli to‘siqlarga, chalg‘ishlarga, chekinishlarga uchrashi mumkin. Qissaga ana shunday noan‘anaviy uslubiy tajriba tanlangan.

Qissa qahramoni: “Men hozir baxt va baxtsizlik haqida gapirmoqchiman. Odam hayotda o‘z o‘rnini bilishi uchun bu savollarga javob topishi zarur deb bilaman” [4. – B. 482], – degan iqrorini aytadi. Ammo asar mavzusi bu bilangina chegaralanib qolmaydi. Boshqa tomonlarga “chalg‘iydi”. Bu asardagi o‘ziga xos jihat shuki, qahramon sirlarini tunga aytadi: “Tun mening xilvat boshpanam. Balki yolg‘iz manzirim ham shu yerdir. Men faqat tun qo‘ynidagina, mana shu kichkina qarong‘u burchagimdagina o‘zimni erkin his etaman, ko‘nglimdagi o‘ylarni, sirlarni unga aytaman” [4. – B. 501]. Qissago‘yning mana shunday dil rozi, qalb tubidagi ziddiyatlarga to‘la voqeliklar tahlili vaqt o‘tgan sari kengayib boradi.

Qissa tilida turli badiiy tasvir vositalari, jumladan, tashbehtar juda ko‘p qo‘llaniladi: “...hayot men o‘qib bo‘lgan kitobday shavqsiz”, “...uning afti yomg‘ir ostida qolib, yozuvi o‘chib ketgan qog‘ozday ifodasiz edi”, “Vaqt davra aylanib o‘tayotgan qizlar monand mening oldimdan to‘g‘ri abadiylik tomon o‘tib bormoqda”, kabi o‘xshatishlar o‘quvchidan kuchli sezimni talab etadi. Ba‘zan qahramon tilida o‘zi aytmoqchi “badbo‘y tashbehtar” keladi: “Men bu ayolning eshikni yopmay ham, og‘irligidan mayishib ketgan sim to‘shakda xur-xur uxlab



yotganini ko'rsam hamisha ko'z oldimga botqoqda huzur qilib uxlab yotgan semiz cho'chqa keladi" [4. – B. 501].

Nazar Eshonqul asarlari uslubiga xos asosiy xususiyatlardan biri shuki, yozuvchi goh-gohida haddan tashqari ko'p so'zli, uzundan uzun jummalarni tuzadi: "Hosilaga o'sha kuni nima uchun unga barcha yaramas odamlar kabi u ham o'sha paytlarda olifta, sho'x-shaddod va shakarguftorlikning hamma ko'chasidan bir-bir o'tib chiqqan, gaplashganda og'zidan qizil bog'ichsimon va'dalar bog'langan dastadasta gullar to'kiladigan xushtakalluf yigit edi - bo'lajak kuyoviga tarsaki tushirganimni tushuntirib beraman deb, barcha voqeani yana ham chalkashtirib yuborgandim: o'rtadagi munosabatlarimizga va tanish-bilishlarimiz qiziqib o'qishgan, biroq o'zimiz uchun qizig'i bo'lmagan bizning chigal va mojarobop qissamizga, garchi biz keyinchalik ham bir-birimizdan ko'zlarimizdagi nafrat va ta'nani yashirib, nomigagina uchrashib yurgan bo'lsak ham o'sha uchrashuv so'nggi nuqta qo'ygan, ma'lum manzilgacha birga kelib, so'ng ikkovi ikki yo'ldan ketgan ikki yo'lovchidek biz ham birgalikda bosishimiz zarur bo'lgan manzilni bosib o'tgan va o'sha kundan boshlab, buni ochiq e'tirof etgimiz kelmasa-da, mutlaqo qarama-qarshi tomonlarga – u o'zi orzu qilgan baxt o'lkasi tomon, men esa o'zim ham bilmagan holda mana shu tun panjarasiga qarab yo'l olgan, hayot yo mamot jangiga kirgan qadim massagetlar malikasi yanglig' yuzi va avzoyiga har qanday o'tinchi iltijolar o'tmaydigan sovut kiyib olgan Hosila o'sha kuni xonasiga va ko'zlariga tishlarini qayrab yotgan nafrat ajdohasini bog'lab qo'ygan edi: uni ko'rgan kundan chirqillab sayray boshlagan va unga tomon besarupoy uchib jo'nagan, biroq manzillariga yetmay daydi va Hosilaning iltifotsiz ko'zlaridan otilgan o'qlardan bir-bir halok bo'lgan ko'nglim qushlarining qalashib yotgan murdalari bilan liq to'lgan ko'ksimdagi besarishta xonaga esa o'zi ketgandan so'ng ham qalbimni pora-pora qilish, uni eslagan onlarim ko'krak qafaslarimni yorib tashlash uchun quturib ketib, hamma narsani sindirib, parchalab tashlaydigan yarador bir sherni – behudud va hech qachon javobi topilmaydigan savollarni bog'lab ketgan edi" [4. – B. 491-492].

Hozirgi noan'anaviy qissalar uslubida janr, syujet, kompozitsiya, gap qurilishi haqidagi nazariy qarashlarning parchalanganini kuzatish mumkin. Qahramon



ruhiyatida kechayotgan xayollar to‘zonini bundan boshqacha tarzda ham yetkazish mumkin edi. Biroq bosib o‘tgan hayot yo‘lidan qora tun kabi arzirli ma’ni topolmagan, yoshlik orzulari armonga aylangan va bundan keyin qanday yashash haqida bosh qotirayotgan, tinmay o‘zligini qidirayotgan inson iztiroblarini bundan boshqacha tarzda tasvirlash matn mazmuniga putur yetkazar edi. Hozirgi noan’anaviy asarlar uslubida ko‘psizlik orqali ham tasvirning ta’sirchanligini oshirishga erishilmoqda. Gapning bunday ko‘pso‘zligi ma’lum ma’noda ko‘nglini bo‘shatayotgan qahramon iztiroblariga ham hamohang. Bu uzun gapning ichkarisida sifatlash, o‘xshatish kabi badiiy tasvir vositalari fikrni poetik tarzda ifodalash uchun juda o‘rinli ishlatilgan.

### **Xulosalar (Conclusions)**

Xulosa qilib aytganda Nazar Eshonqul qahramonlari o‘z falsafiy dunyoqarashi bilan alohida ajralib turadi. Bu qissalarda tun, zulmat, qora rangga e’tibor berish va ularning yorqin tomonlaridan unumli foydalanish kuzatiladi. Badiiy tasvir vositalari qissalarning poetik tiliga xos xususiyatlarini namoyon etadi, shuningdek, ba’zi hollarda noan’anaviy qurilishga ega bo‘lgan uzundan-uzun gaplardan foydalanish ko‘zga tashlanadi.

Alisher Navoiyning “Boshimg‘a, ko‘rki, ne tun kelturibsen...” misralari epigraf qilib olingani asarning birinchi muhabbat fojiasi ekanligiga dalolat qiladi. Tun, qora rang hayot so‘qmoqlari aro adasha-adasha ma’lum bir manzilga kelgan qahramon ortga nigoh tashlashi, ortida qolgan yagona haqiqatni anglashi uning fikrchan, ulug‘vor insonligidan dalolat beradi. Mana shu jihat qissaning fojiaiy pafosda, qahramon botinidagi voqelikning fojia uslubida tasvirlashga olib keladi.

### **Adabiyotlar (References)**

1. Жўраев Т. Онг оқими модерн. – Фарғона, 2009.
2. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
3. Нитше. Зардўшт таваллоси (насрий достон) // Тунги кўшик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.

4. Эшонқул Н. Тун панжаралари // Сайланма II . – Тошкент: Akademnashr, 2022.
5. Эшонқул Н. Тасаввурга дош берсанг бўлди... // Ёшлик. – Тошкент, 2003. 3-сон.
6. Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003.